NAVOIY VILOYATININGINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-aprel*)

Navoiy viloyati bo`yicha joriy yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1844,8 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,1 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 232,1 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 81,8 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 1612,6 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 1,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 255,6 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 9,6 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.

Hududlar kesimida
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, *(mlrd.so'm)*



**-dastlabki ma'lumotlar*

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan o`sish sur`atlari Navoiy shahri, Zarafshon shahri, Xatirchi, Navbaxor, Karmana tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko’rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko’rsatkich Uchquduq tumaniga to’g’ri kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasining o’sish sur’atlari, %



Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	Jamidan			
		Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	**1844,8**	**232,1**	**12,6**	**1612,6**	**87,4**
shahar va tumanlar:					
Navoiy shahar	708,6	219,3	31,0	489,2	69,0
Zarafshon shahar	144,4	2,1	1,4	142,3	98,6
Karmana tuman	282,7	0,9	0,3	281,7	99,7
Konimex tuman	49,9	0,3	0,6	49,6	99,4
Qiziltepa tuman	208,2	3,0	1,4	205,2	98,6
Navbahor tuman	96,4	0,3	0,3	96,1	99,7
Nurota tuman	64,7	0,9	1,3	63,8	98,7
Tomdi tuman	11,6	0,1	0,8	11,5	99,2
Uchquduq tuman	70,4	0,3	0,4	70,1	99,6
Xatirchi tuman	208,0	5,0	2,4	203,0	97,6

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 81,8 % ga o`sdi va 232,1 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,6 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 1612,6 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,1 % ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,4 % ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, %**



Joriy yilning yanvar-aprel oylari tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Navbahor (99,7%), Karmana (99,7%), Uchquqduq (99,6%), Konimex (99,4%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 12,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (31,0 %), Xatirchi tumani (2,4 %) kuzatilgan.

Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, *(mlrd.so'm)*

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	**1 844,8**	**1 842,1**	**2,7**
shahar va tumanlar:			
Navoiy shahar	708,6	706,0	2,6
Zarafshon shahar	144,4	144,4	-
Karmana tuman	282,7	282,6	0,1
Konimex tuman	49,9	49,9	-
Qiziltepa tuman	208,2	208,2	-
Navbahor tuman	96,4	96,4	-
Nurota tuman	64,7	64,7	-
Tomdi tuman	11,6	11,6	-
Uchquduq tuman	70,4	70,4	-
Xatirchi tuman	208,0	208,0	-

Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, (%)

2018 yil yanvar-aprel

2019 yil yanvar-aprel

Yuqoridagi solishtirma diagrammalardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-aprel oylarida 1842,1 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,01 foizga ko'paydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-aprel oylarida 2,7 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,01 foizga kamaydi.

Chakana savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi, %



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (38,4 foiz), Karmana tumani (15,3 foiz), Qiziltepa tumani (11,3 foiz), Xatirchi tumani (11,3 foiz), va Zarafshon shahri (7,8 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Jumladan, 2019 yilning yanvar-aprel oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,6 % ni tashkil etib, 47,8 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,5 % o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 89,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi



Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi 5,2 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 % ga ko'paygan), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 42,6 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 2,4 %), tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibidagi ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Zarafshon shahri, Qiziltepa tumani va Xatirchi tumanini misol keltirishimiz mumkin.

Mulkchilik shakli bo'yicha
ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi, *(mlrd.so'm)*

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	**47,8**	**46,0**	**1,8**
shahar va tumanlar:			
Navoiy shahar	21,4	19,7	1,7
Zarafshon shahar	6,2	6,2	-
Karmana tuman	8,2	8,2	0,04
Konimex tuman	0,8	0,8	-
Qiziltepa tuman	3,4	3,4	-
Navbahor tuman	1,3	1,3	-
Nurota tuman	1,0	1,0	-
Tomdi tuman	0,5	0,5	-
Uchquduq tuman	1,6	1,6	-
Xatirchi tuman	3,3	3,3	-

Navoiy viloyatida mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi ulushi, (%)

2018 yil yanvar-aprel

2019 yil yanvar-aprel

Yuqoridagi solishtirma diagrammalardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-aprel oylarida 46,0 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,1 foizga ko'paydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar- aprel oylarida 1,8 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,1 foizga kamaydi.

NAVOIY VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-aprel*)

2019 yil yanvar-aprel oylarida viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 583,6 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 2,0 martaga oshdi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi , *(mlrd.so'm)*



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmiga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko`ra, 376,5 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 martaga oshdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 64,5 %ni tashkil qilmoqda.

**-dastlabki ma'lumotlar*

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub`ektlari aylanmasining ulushi esa 35,5 % ni tashkil etdi.

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan o`sish sur`atlari Navoiy shahri, Xatirchi tumani, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Zarafshon shahri, Nurota tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Navbahor tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, %



Quyidagi jadval ma’lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahrida va Xatirchi tumanida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi mavjud bo’lib, qolgan 8 ta hududda asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan amalga oshirilgan.

Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovar aylanmasiga ega bo’lgan hudud bu Navoiy shahri bo’lib, uning tovar aylanmasi 444,8 mlrd.so’mni tashkil etadi (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 barobarga oshdi).

**Ulgurji savdo tovar aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	Kichik korxonalar (mlrd.so`m	Ulushi, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	**583,6**	**207,1**	**35,5**	**376,5**	**64,5**
Navoiy shahar	444,8	68,6	15,4	376,2	84,6
Zarafshon shahar	11,4	11,4	100,0	-	-
Karmana tuman	75,9	75,9	100,0	-	-
Konimex tuman	2,6	2,6	100,0	-	-
Qiziltepa tuman	15,2	15,2	100,0	-	-
Navbahor tuman	16,8	16,8	100,0	-	-
Nurota tuman	1,7	1,7	100,0	-	-
Tomdi tuman	0,4	0,4	100,0	-	-
Uchquduq tuman	2,9	2,9	100,0	-	-
Xatirchi tuman	11,8	11,5	97,0	0,3	3,0

Hududlar kesimida mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, *(mlrd.so'm)*

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	**583,6**	**583,4**	**0,2**
shahar va tumanlar:			
Navoiy shahar	444,8	444,8	-
Zarafshon shahar	11,4	11,4	-
Karmana tuman	75,9	75,7	0,2
Konimex tuman	2,6	2,6	-
Qiziltepa tuman	15,2	15,2	-
Navbahor tuman	16,8	16,8	-
Nurota tuman	1,7	1,7	-
Tomdi tuman	0,4	0,4	-
Uchquduq tuman	2,9	2,9	-
Xatirchi tuman	11,8	11,8	-

Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi, *(%)*

2018 yil yanvar-aprel

2019 yil yanvar-aprel

Yuqoridagi solishtirma ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo’yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-aprel oylarida 583,4 mlrd.so’mni tashkil etadi. Bu ko’rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,05 foizga ko’paydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo’yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-aprel oylarida 0,2 mlrd.so’mni tashkil etadi. Bu ko’rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,05 foizga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida viloyat hududlariningning ulushi, %



Tahlil natijalariga ko’ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo’lgan Navoiy shahri (76,2 foiz), Karmana tumani (13,0 foiz) va Navbahor tumani (2,9 foiz) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko’rsatdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo’limi
Tel.: (0871) 230-84-36